

O'ZBEK FILIMLARIDA MUSIQIY JANR TURLARI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedrası o'qituvchisi

Maxmudova Xushruya

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek kinematografiyasida musiqa badiiy ifoda vositasi sifatidagi o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Ayniqsa, akademik va estrada yo'nalishidagi musiqa janrlaridagi uyg'unligi, ularning milliylik va zamonaviylikni birlashtirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, estrada yo'nalishidagi saundtreklarning yosh auditoriyaga ta'siri va ularning ommalashish jarayoni ko'rsatib o'tilgan. Maqolada milliy kino san'atida musiqa janrlarining sintezi, ya'ni xalq kuylarining, simfonik orkestr va estrada elementlarining uyg'unligi orqali filmning g'oyaviy-estetik qiymati oshirilishi haqida xulosa chiqarilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbek kinematografiyasi, film musiqasi, milliy kuylar, estrada, simfonik orkestr, saundtrek, milliy an'ana, musiqa janrlari sintezi, badiiy ifoda.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль и значение музыки как художественного средства выражения в узбекской кинематографии. Особое внимание уделено гармоничному сочетанию академической и эстрадной музыки в фильмах, а также их роли в объединении национальных традиций и современности. В статье также рассматривается влияние эстрадных саундтреков на молодёжную аудиторию и процесс их популяризации. Делается вывод о том, что синтез музыкальных жанров объединение народных мелодий, симфонического оркестра и элементов эстрады способствует повышению идейно-эстетической ценности фильма.*

Ключевые слова: *Узбекская кинематография, музыка к фильму, народные мелодии, эстрада, симфонический оркестр, саундтрек, национальная традиция, синтез музыкальных жанров, художественное выражение.*

Abstract: *This article analyzes the role and significance of music as an artistic means of expression in Uzbek cinematography. In particular, it highlights the harmony between academic and pop (estrada) music in films and their role in combining national identity with modernity. The article also discusses the impact of pop-style soundtracks on young audiences and their process of popularization. It concludes that in national cinema, the synthesis of musical genres — the fusion of folk melodies, symphonic orchestra, and pop elements — enhances the film's ideological and aesthetic value.*

Keywords: *Uzbek cinematography, film music, national melodies, pop music, symphonic orchestra, soundtrack, national tradition, synthesis of musical genres, artistic expression.*

Musika san'ati kinematografiyada alohida o'rin egallaydi. U ekrandagi voqelikni ifodalashda, dramaturgiyani kuchaytirishda, tomoshabin qalbiga ta'sir etishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek milliy kinematografiyasida musiqa filmning ajralmas qismiga aylangan. U nafaqat bezak va hamrohlik vazifasini bajaradi, balki filmning g'oyaviy-estetik yuksalishiga xizmat qiladi, obrazlarni ochishga va syujetni rivojlantirishga yordam beradi. O'zbek kinolarida musiqiy hamrohlik janrlar rang-barangligi bilan alohida ahamiyatga ega. Xalq musiqasi, akademik musiqa va estrada yo'nalishlari orqali milliy kinoning badiiy qiyofasi shakllanadi. Bu jarayonda maqom san'ati, simfonik ijod va zamonaviy estrada kompozitsiyalari bir-biri bilan uyg'unlashib, milliy kinematografiyaning ko'p qirrali mohiyatini namoyon etadi.

Ushbu maqolada o'zbek filmlaridagi musiqiy janr turlari ilmiy tahlil qilinadi, ularning badiiy-estetik funksiyalari hamda milliy ekran san'ati rivojida o'rni yoritiladi. Kinoda musiqa quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- *Bezak vazifa-* musiqaning filmidagi voqealar, sahnalar va obrazlarni emotsional, estetik va stilistik jihatdan boyitish, kadrlar go'zalligini to'ldirish, rang va ovoz uyg'unligini kiritish, tomoshabinning badiiy taassurotini kuchaytirish;
- *Dramaturgik vazifa-* syujet rivojini qo'llab-quvvatlash, dramatik keskinlikni oshirish yoki yumshatish, obrazlarning ichki kechinmalarini ochish;

- *Janroviiy vazifa*- filmning umumiy uslubini belgilash, uning janri va ruhiyatiga mos muhit yaratish;

Masalan, tarixiy drama janrida ko‘proq simfonik va xalq musiqasiga murojaat qilinsa, zamonaviy melodrama yoki komediyalarda estrada kuylari ustunlik qiladi. Bu orqali musiqa filmning ichki tabiatiga mos ravishda tanlanadi. O‘zbek xalq musiqasi milliy kinematografiyaning asosiy ilhom manbaidir desak mubolag’a bo‘lmaydi. Ayniqsa, maqom an‘anasi o‘zbek filmlarida keng qo‘llanilib kelingan. Maqom kuylari syujetga milliy ruh bag‘ishlaydi, qahramonlarning ichki dunyosi va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq holatlarini ifodalaydi. Masalan, G‘afur G‘ulom qalamiga mansub, rejissyor Damir Salimov va Rumil Vildanov bastakorlik qilgan “Shum bola” (1977) filmida xalq kuylari orqali bolalikning beg‘uborligi, qishloq muhitining samimiyligi yoritilsa, rejissyor Xabib Fayziev tomonidan suratga olingan “Alpomish” epik filmida maqomga asoslangan kuylar milliy qahramonlik ruhini kuchaytiradi. O‘zbek filmlarida xalq kuylari ko‘pincha etnografik muhitni to‘liq ochib berish uchun qo‘llaniladi. Masalan, to‘y marosimlari, bayram sahnalari yoki xalq urf-odatlari aks etgan epizodlarda milliy an‘anaviy kuylar filmning realistik xususiyatlarini oshiradi. Shu tariqa, an‘anaviy xalq musiqasi kino san‘atida milliylik va etnomadaniy xususiyatlarni namoyon etuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

O‘zbek kinosida simfonik musiqa ko‘pincha tarixiy va falsafiy mazmundagi filmlarda qo‘llaniladi. U keng qamrovli orkestrivka, ko‘p qatlamli dramtizm orqali ekran voqealariga salobat va badiiy quvvat bag‘ishlaydi. Masalan, “Abdulla Qodiriy” yoki “Temur Malik” kabi tarixiy-dramatik filmlarda simfonik musiqa qahramonlar ruhiyatini ochish, milliy tarixning ulkanligi va dramtizmini teran ifodalashga xizmat qiladi.

Akademik musiqa o‘zbek filmlarida ko‘pincha milliy kuy va ritmlar bilan uyg‘unlashgan holda yaratiladi. Kompozitorlar xalq musiqasiga asoslangan simfonik aranjirovkalar orqali milliylik va jahon klassikasi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlaydilar. Masalan, “Mahallada duv-duv gap” filmi milliy kinematografiya rivojida muhim ahamiyatga ega asarlardan biri hisoblanadi. Filmdagi musiqa

asarning badiiy mazmuni, milliy koloriti va emotsional muhitini yuksak darajada ifoda etgan. Bastakor M. Liviyeu tomonidan yaratilgan “Yurtimizda yashnar Bahor”, “Vals” va “Hayot” kabi qo‘shiqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda nay, doira va rubob kabi milliy cholg‘ulardan samarali foydalanilgan bo‘lib, ular orqali filmdagi voqealar ruhi, milliy an‘analari va xalqona hayot tarzi jonli ifodalangan. Musiqiy leytmotivlar personajlarning ichki kechinmalari va obrazlar xarakteri bilan uzviy bog‘langan holda ishlangan. Mazkur film musiqasi orqali milliy an‘anaviy musiqa va zamonaviy kino uslubining uyg‘unligi yaratilgan. Bu esa milliy kinematografiyada musiqaning badiiy ifoda vositasi sifatidagi qo‘llanilish ahamiyatini yanada oshirdi. Umuman olganda, “Mahallada duv-duv gap” filmi nafaqat mazmun jihatidan, balki musiqiy yechimlari orqali ham milliy kino san‘atining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

Estrada yo‘nalishi kino san‘atida ayniqsa ommaviy auditoriyaga mo‘ljallangan filmlarda keng qo‘llaniladi. U zamonaviy kuy va ritmlar orqali tomoshabinni filmga yaqinlashtiradi, zamon ruhini ifodalaydi. O‘zbek kinosida sog‘lom estrada an‘analari asosida maxsus saundtreklar yaratish tendensiyasi ham rivojlanmoqda. Bunday kuylar filmdan tashqari ham ommalashib, keng auditoriyaga yetib boradi. Masalan, aksariyat yoshlar auditoriyasi drama va romantik filmlar uchun yaratilgan qo‘shiqlarni keyinchalik ham tinglashadi, bu esa film uchun yaralgan kuy yoki qo‘shiqning xitga aylanishini ta‘minlaydi. Masalan, “Maftun bo‘ldim” filmida yangragan “Maftuningman” qo‘shig‘i hozirgi kunga qadar tomoshabinlar ko‘nglidan joy olgan va har bir milliy ruhdagi bayramlarda yosh va iste‘dodli yoshlar tomonidan kuylanadi.

Xulosa

Milliy kinematografiyada kuzatilayotgan tendensiyalardan biri zamonaviy va an‘anaviy musiqiy janrlarning sintezi; sauntreklarda an‘anaviy xalq kuylari, simfonik orkestr va estrada yo‘nalishidagi qo‘shiqlarning uyg‘unligi bo‘lib, bu holat kartinalarning badiiy palitrasining boyishi, turli xil segment auditoriyasiga tushunarli va ta‘sirli bo‘lishiga xizmat qiladi.

So‘nggi 7 yillikda ishlab chiqarilgan tarixiy kinokartinalarda

kompozitorlarning badiiy izlanishlarini turli xil baholash mumkin. Biroq o'rganilgan tarixiy dramalarda epik sahnalar simfonik orkestr ijrosida, milliy bayramlar, urf-odat va an'analar ko'rsatilgan epizodlarda xalq kuylari, zamonaviy voqealar esa estrada yo'nalishidagi musiqalar bilan to'ldirilgani, ya'ni kompozitorlar janr va sozlar xilma-xilligiga harakat qilayotganini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, bu janrlar uyg'unligi milliy ekran san'atining ko'p qirrali va sintetik xususiyatini namoyon etadi. Musiqaning kino san'atidagi o'rni filmning g'oyaviy-estetik samaradorligini oshirish bilan birga, tomoshabin qalbida chuqur hissiy ta'sir qoldiradi. Demak, o'zbek kinematografiyasida musiqiy janr turlari nafaqat filmning badiiy qiymatini oshiruvchi omil, balki milliy madaniyat va ma'naviyatni targ'ib etuvchi muhim ma'naviy vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gafurova Shokhida, Ganikhanova Shoista. "About Formation of Musical Concepts in Applied Music of Uzbekistan". Eurasian Music Science Journal, 2022.
2. "Maqom" Book-Album. Tashkent: Qo'shiq va maqom san'atini asrab-avaylash va rivojlantirish bo'yicha prezident qarori + Milliy "Shashmaqom. Oltin Bisot" multimedia kolleksiyasi.
3. Yunus Rajabi – The Great Master and Innovator of Uzbek Maqom Art. Azizxon Oyto'rayev. American Journal of Science on Integration and Human Development, 2024.
4. Ganikhanova Shoyista. "Film Music of Uzbekistan in the Context of the Problem of the Synthesis of Arts". Eurasian Music Science Journal, 2020.